



O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

Vaziyat

2024-yil
7-noyabr
№ 45 (986)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

QO'MONDONLIK-SHTAB O'QUV MASHG'ULOTLARI



Qashqadaryo viloyatida Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A.Qo'ldoshev hamda viloyat hokimi M.Azimovlar ishtirokida qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini samarali tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar bajarildi. Mashqlar bevosita joylarda, ko'rgazmali shaklda tashkil etilib, tizim xodimlarining bilim va ko'nikmalari oshirildi. Ularni

ega bo'lgan yoki ushbu sohada majburiyatlar yuklangan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar tomonidan tinchlik va alohida davrda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf

vatdagi favqulodda vaziyatlar paydo bo'lish xavfini yanada oshirmoqda.

Mashg'ulot jarayonida aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda talafotlarning oldini olish, qutqaruv va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining xizmat faoliyatlarini sinovdan o'tkazildi. Sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan kuz-qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, avariya-tiklash bo'linmalarining tayyorgarligi va boshqa zaruriy jihatlarni e'tiborga olish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni bajarishda moddiy-texnik ta'minot masalalarini hal etish borasida zarur fikrlar bayon etildi. Yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari ko'rib chiqildi.

Tadbirda qayd etilganidek, qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotlari tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlar hamda boshqa holatlarda aholining harakatlanishi, hodisalar oqibatini bartaraf etishda ko'riladigan chora-tadbirlarni targ'ibot qilish maqsadida tashkil etiladi. O'quv mashg'ulotida ana shu jarayonlar amaliy ko'rsatilib,



Mazkur o'quv mashqi davomida Qashqadaryo viloyati hududida energetika va kommunal soha obektlarining 2024 – 2025-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, mavsum davomida issiqlik va energetika tarmoqlarini barqaror ishlashini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy harakatlar olib borildi. Shuningdek, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yirik avariylarning oldini olish

o'tkazish davomida mavsumga puxta tayyorgarlik ko'rish, avariya sodir bo'lganda tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishni tashkil etish, avariya holatlarida hududiy boshqaruv organlarining hamkorlikdagi harakatlarini takomillashtirish kabilarga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, FVDTning asosiy maqsadi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlarga

erishishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari jadal rivojlanayotgani, ishlab chiqarish texnologiyalarining murakkablashib borayotgani, ishlab chiqarish obyektlarining aholi punktlariga yaqin joylashtirilayotgani, urbanizatsiya jarayoni tezlashayotgani tabiiy hamda texnogen xususi-



hamkor tashkilotlarning tayyorgarlik holati ko'zdan kechirildi.

Mahalla fuqarolar yig'inlarida, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga elektr energiyasi, gaz resurslarini yetkazib berishda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholini yuzaga kelgan vaziyatlardan xabardor etish, jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish, aholini xavfsiz hududlarga tezkorlik bilan ko'chirish ishlarini tashkillashtirish va aholini to'g'ri harakat qilishga o'rgatish bo'yicha zarur ko'nikmalar berildi.

Anvar QOBILOV
tayyorladi.



UCHRASHUV

Harbiy prokuratura organlari tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishidagi amaliy tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, Urganch tumanining "Oq oltin" mahallasi mas'ullari hamkorligida biriktirilgan yoshlar bilan ochiq muhoqot o'tkazildi.

Unda yoshlarning ijtimoiy holati, qiziqishlari va kelgusi rejalari o'rganildi. Jarayonda mahalla yetiligi va boshqa mutasaddilar bilan birgalikda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy

muammolarini hal qilish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

Tadbir 2-sonli kasb-hunar maktabida "Prokurorlik soati" shaklida davom etdi.

Unda vatanparvarlik, harbiy xizmat, burchga sadoqat, el-yurt taqdiriga daxldorlik mavzularida o'quvchilarga tushunchalar berildi.

Aziz ALIMKULOV,
Urganch harbiy prokurorining
katta yordamchisi,
adliya kapitani.

VATANPARVAR YOSHLAR

Termiz harbiy prokuraturasi va kuch tuzilmalari hamkorligida Muzrabot tumanining olis chegaralari hududidagi "Bog'i Eram" mahallasida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Unda "Chegarachi", "Yangi Diyor" va "Alpomish" mahallalaridan 400 ga yaqin yoshlar ishtirok etdi.

Jarayonda milliy o'yinlar va sport turlari bo'yicha bellashuvlar uyushtirilib, yakunida g'oliblar va faol ishtirokchilar munosib taqdirlandi.

Harbiy orkestr jamoasi, faxriy qorovul chiqishlari va aslahalar ko'rgazmasi yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Sardor HABIBULLAYEV,
Termiz harbiy prokuraturasi
tergovchisi, adliya leytenanti.

ILMIY-AMALIY ANJUMAN

FVV Akademiyasida "Aniq va tabiiy fanlar yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni samarali bartaraf etishning zamonaviy yechimlari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazildi.



maradorligini oshirishda qo'l keladigan takliflar, tavsiyalar ishlab chiqilayotganini qayd etdilar.

Anjuman doirasida innovatsion texnologiyalarning o'rni, yong'in xavfsizligini ta'minlash choralari

rivojlantirish, qurilish ishlari xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor vazifalari, zamonaviy elektromobillarda sodir bo'lgan texnogen vaziyatlarda harakat qilish usullari, ishlab chiqarish obyektlarida, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning eng xavflilaridan hisoblangan kimyoviy xavfli obyektlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan texnogen vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish vaqtida yuzaga keladigan muammolar hamda ularning zamonaviy yechimlari, tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlardan aholini xabardor qilish tizimlarini takomillashtirish xususidagi keng fikr-mulohazalar bildirildi.

Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti, Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti, Toshkent davlat transport universiteti, FVV Fuqaro muhofazasi instituti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Yong'in xavfsizligi va Favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy tadqiqot instituti mas'ul xodimlari, FVV akademiyasi professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilari, xizmatchilar va kursantlar ishtirok etdilar.

So'zga chiqqanlar bugungi ilmiy-amaliy anjuman texnogen va tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olishning salbiy oqibatlarini kamaytirish, ularni bartaraf etishdagi muammolarning zamonaviy yechimlarini topish, xavfsizlikni ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash sa-

Farhodjon XOJAYEV,
Turdigul JUMANIYOZOVA,
FVV Akademiyasi katta
o'qituvchilari.

GLOBAL KORRUPSIYA

Korrupsiya masalasi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan eng asosiy global muammolardan biridir. Bu muammo har qanday davlat va jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladigan salbiy illatdir. Shuning uchun ham bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash masalasi xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy oldi.

U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Global korrupsiya statistikasi shuni ko'rsatadiki, muammo global miqyosda dolzarbligicha qolmoqda. Korrupsiyaga oid ma'lumotlarning eng mashhur manbalariga "Transparency International" tashkilotining korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI), Jahon bankining biznes yuritish qulayligi indeksi va BMTning turli tadqiqot-

lari kiradi. Korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ko'pincha qashshoqlik darajasi yuqori bo'ladi. Bu mamlakatlarda korrupsiya resurslaridan samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi, tengsizlikni kuchaytiradi va ta'lim, sog'liqni saqlash va toza suv kabi asosiy xizmatlardan foydalanishga to'sqinlik qiladi. Ko'pgina mamlakatlarda xususiy kompaniyalar ko'pincha hukumat shartnomalari yoki ruxsatnomalarini olish uchun pora berishga majbur bo'lishadi. Jahon bankining "Biznes yuritishning qulayligi" indeksi shuni ko'rsatadiki, korrupsiya bir qator mamlakatlarda, xususan, rivojlanayotgan mintaqalarda tadbirkorlik uchun asosiy to'siqdir.

Korrupsiya tizimli yondashuv va xalqaro hamkorlikni talab qiluvchi murakkab muammo bo'lib qolmoqda. Oshkorlik va mas'uliyatni oshirish, huquqiy institutlarni mustahkamlash va aholining bu boradagi xabardorligini oshirish bu illatga qarshi kurashda muhim qadamdir.

So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Shu sababli loqaydlik, befarqlik, ikkiyuzlamachilik, tovlamachilik, firibgarlik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, poraxo'rlik kabi illatlarning sodir etilishiga qarshi kurashda barchaning faolligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu kabi tahdidlarni esda tutmog'i dar-kor.

SH.ESONOV,
Toshkent shahar
shaxsiy xavfsizlik bo'limi
boshlig'i, podpolkovnik.

MUROJAATLAR YECHIM TOPMOQDA

Fuqarolarimizning ertangi kunga ishonchi yanada ortishi va bugundan rozilik hissi bilan yashashini amalda to'laqonli ta'minlashda, murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va aholi bilan yuzma-yuz muloqotlar alohida o'rin tutadi.

Bu borada Navoiy harbiy prokuraturasi tomonidan ham amaliy tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Xususan, mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda Tomdi tumanida navbatdagi omma-viy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda tegishli soha mutaxassislari jalb etilgan holda harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari tinglandi.

Jarayonda murojaatlarning ko'pchiligi yuzasidan huquqiy tushuntirish berilib, ko'rib chiqishi muddat talab etadiganlari nazoratga olindi.

Jo'rabek O'RINOV,
Navoiy harbiy prokurori,
adliya polkovnigi.

SEMINAR

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni mazmun-mohiyatini shaxsiy tarkibga yetkazish maqsadida, Samarqand viloyati FVB va uning tarkibiy tuzilmalari shaxsiy tarkibi ishtirokida seminar tashkil etildi.

Seminar davomida boshqarma boshlig'i N.Kadirov hamda mas'ul xodimlar tomonidan shaxsiy tarkib o'rtasida harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarlik va qonun buzilishi, shuningdek, diniy ekstremizm va terrorizm, korrupsiya hamda manfaatlar to'qnashuvi kabi holatlarining oldini olish, harbiy xizmatchi va



xizmatchilarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish borasida atroflicha tushunchalar berildi.

Y.ABDULLAYEV,
Samarqand viloyati FVB bo'lim bosh
inspektori, mayor.

TARAQQIYOT KUSHANDASI

Buxoro viloyati FVBning tegishli bo'limi tomonidan boshqarma tizimida korrupsiya jinoyatchiligining oldini olish maqsadida boshqarma shaxsiy tarkibi ishtirokida seminar tashkil etildi.

Korrupsiya, qimor o'yinlari, firibgarlik, poraxo'rlik va boshqa jamiyatni tanazzulga olib keladigan illatlardan ogoh bo'lish, shaxsiy tarkib o'rtasida bunday holatlarning oldini olish, bunda "Har bir oila – bir butun jamiyat" tamoyili asosida yaqinlarining harakatidan doimo xabardor bo'lgan holda tinchlik va osoyishtalikning qadriga yetish, oilada sog'lom muhitni yaratish va



ma'naviy kamol toptirish borasida fikr-mulohazalar bildirildi.

Sh.TURSUNOV,
Buxoro viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

ORZULARNING IJOBATI YO'LIDA

Toshkent shahar Yunusobod tumanining "Muruvvat" mahallasida yashovchi Muqaddam Qosimova yolg'iz boshi bilan Muhammadali va Abdulloh ismli 2 nafar farzandini voyaga yetkazmoqda. Hayotning turli sinovlari oldida bosh egmagan matonatli ayol o'z turmushini o'nglash uchun tish-tirnog'i bilan harakat qiladi. O'g'li Muhammadalining qalbida yoshligidan sportga, xususan, sportning yakkakurash turiga nisbatan kuchli mehr borligini anglagan bo'lsada, oilaviy sharoiti tufayli sport to'garaklariga olib borolmagan.

Darvoqe, insonning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishida, salomatligining mustahkamlanishida jismoniy tarbiya va sportning o'rni benihoya katta. Sog'lom farzandning dunyoga kelishi, kuchli hamda baquvvat bo'lib ulg'ayishi esa vatanimizning kelajagi uchun muhim ahamiyatga egadir. Buni Muhammadali Qosimov ham teran anglab yetgan yoshlardan hisoblanadi. Ammo moddiy tomonlama imkoniyatning yo'qligi bunga halal bergan. Shunday bo'lsa ham u o'qishdan bo'sh vaqtlarida sport mashqlarini videolardan ko'rib,



bajarishga harakat qilgan. Orzusi esa sport mashg'ulotlariga qatnashib, musobaqalarga chiqib, medallar olish bo'lgan.

– Joriy yilning fevral oyida mahallamiz Yoshlar yetakchisi L.Turg'unova menga qo'ng'iroq qilib, idoraga kelishimni aytdi, deydi – M. Qosimov. – U yerga borganimda egnida FVV libosini kiygan insonga ko'zim tushdi. O'zaro suhbat va tanishuv davomida bu odamni Toshkent shahar FVB xodimi, kapitan Adham Ashirov ekanligi ma'lum bo'ldi. A.Ashirov mening qiziqishlarim haqida so'radi. Men esa uyimda sport bilan shug'ullanishimni va sport zallariga borishga mablag'im yo'qligini aytdim. Adham aka o'sha kunning o'zida Yunusobod tumanidagi 273-umumta'lim maktabida ochilgan "Kik-boksing" sport to'garagiga olib

bordi. Shundan buyon mashg'ulotlarga muntazam ravishda qatnashib kelaman.

Albatta, Muhammadali sakkiz oy davomida bir necha musobaqalarda, jumladan, 2024-yil mart oyida "KOMBAT JU-JITSU" hamda aprel oyida "MUAY-TAY" sport turlari bo'yicha o'tkazilgan Toshkent shahri va Toshkent viloyati birinchiliklarida 1- va 2-o'rinni egalladi. Uning bunday yutuqlarida A.Ashirovning hissasi beqiyos bo'lmoqda.

Adham Ashirov FVV tizimida xizmat faoliyatini olib borayotgan, mehnatkashligi, tashabbuskorligi bilan jamoasi orasida hurmat, obro'-e'tiborga ega bo'lib kelayotgan, har bir topshiriq hamda ko'rsatmalarni, xizmat vazifasini o'z vaqtida, to'liq bajarishga harakat qiladigan, o'z lavozimi doirasida funksional vazifalarini bajarishga jiddiy yondashadigan insondir. U suhbatlar davomida Muhammadaliga sport sohasi salomatlik, jismoniy yetuklikning asosi ekanligini to'laqonli tushuntirgan. El tanigan va hayotda o'z o'miga ega bo'lgan sportchilar haqida aytib bergan. Sport cho'qqilarini egallash har bir shaxsdan o'ta irodali bo'lishni taqozo qilishini tushuntirgan.

– Har bir sportchi, umuman olganda, har bir inson, eng avvalo, o'zining oldiga aniq maqsad qo'yishi lozim,

– deydi Adham Ashirov. – Ana shu maqsadlarini amalga oshirish yo'lida tinimsiz harakat qilishi zarur. Jismoniy mashqlar kishida ish qobiliyati oshiradi, salbiy, ruhiy ta'sirlar, aqliy charchashni bartaraf etadi. Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini bajarishda, insonlar hayotini tezkorlik va chaqqonlik bilan qutqarishda, ularning mol-mulklarini asrab qolish, harbiy xizmatchilarning vatan va xalq oldidagi burchlarini bajarishda, qolaversa, insonning jismonan sog'lom, chaqqon va chidamli bo'lib shakllanishida sportning o'rni katta hisoblanadi.

Xulosa o'rni aytadigan bo'lsak, Muhammadali Qosimovga bellashuvlarda, murosasiz kurashlarda boy bo'lgan musobaqalarda ishtirok etib, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishini tilaymiz va kutamiz. Mamlakatimizning fidoyi, jonkuyar yigitlari bilan bir safda turib, "O'zbekiston xaloskori" degan sharafli nomni oqlab kelayotgan Adham Ashirovga kelgusidagi sharafli vazifa yo'lida bugungidek, bardamlik, omad va muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

A.SULTONOV,

Toshkent shahar FVB boshlig'ining, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik.

MUAMMOLAR MUHOKAMASI



FVV Fuqaro muhofazasi institutida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi. Unda FVDT tarkibiga kiruvchi Milliy gvardiya, Sog'liqni saqlash, Mudofaa, Ichki ishlar, Suv xo'jaligi, Transport, Energetika, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi, va Raqamli texnologiyalar vazirliklari, shuningdek, Bojxona qo'mitasi, O'zbekiston temir yo'llari AJ, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari Milliy tadqiqot universiteti, Hidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot institutlarining mas'ul xodimlari va professor-o'qituvchilari ishtirok etdilar.

Bundan tashqari, Sanoat xavfsizligi qo'mitasi, O'zbekneftgaz AJ, O'z kimyosanoat AJ, Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti davlat muassasasi, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining yetakchi olimlari ma'ruzalari bilan qatnashdilar.

Ular o'z ma'ruzalarida FVDTni yanada takomillashtirish va rivojlantirish bosqichlarida favqulodda vaziyatlarga olib keladigan omillarni barvaqt aniqlash, ogohlantirish, xavf-xatarlarni kamaytirish, tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etish, maxsus bo'linmalarni moddiy-texnik ta'minlash, obyekt darajasidagi boshqaruv organlari faoliyatini tartibga solish choralari, aholini tayyorlashda zamonaviy o'qitish usullaridan keng foydalanish amaliyoti bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, sohadagi yangiliklar, dolzarb muammolar va ularning yechimlari haqida gapirdilar.

Anjumanda ko'tarilgan masalalar bo'yicha muhokama va munozaralardan so'ng, ishtirokchilar tomonidan respublikada FVDTni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ishtirokchilar o'zlarining qiziqtirgan savollari-ga mutaxassislardan tegishli javob oldilar.

S.HUSANOVA,

Fuqaro muhofazasi instituti FVDT boshqarish va rejalashtirish kafedrasini professori.

A.MIRZAYEV,
dotsent.

SAMARALI HAMKORLIK

Qashqadaryo viloyati FVB Xo'itn-qizlar kengashi tashabbusi bilan "Gender masalalari bo'yicha harbiy sohadagi ayollar salohiyatini rivojlantirish" mavzusida seminar-trening o'tkazildi.

Qarshi shahridagi Yoshlar markazida bo'lib o'tgan ushbu tadbirda Fuqaro muhofazasi

instituti, YUNISEF tashkiloti, viloyat FVB, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyatlari va boshqa hamkorlikdagi tashkilotlar vakillari qatnashdi.

Ishtirokchilarga gender va gender tengligi haqida tushunchalar berish bilan birga, har bir qatnashchida farzand tarbiyasi, mantiqiy fikrlash orqali natijadorlikka erishish, muammoli vaziyatlardan chi-

qish hamda munosabatga kirishishdagi o'zaro muloqot etikasi, konstruktiv hamkorlik tajribasi, jamoa a'zosining umumiy vazifalarni hal qilishdagi mas'uliyati hamda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsad qilindi.

Habiba YAKUBOVA,

Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M katta o'qituvchisi.

Samarqand viloyatida FVV tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" sport musobaqalari va ko'rik-tanlovlarning respublika bosqichida Namangan viloyati yoshlari ham munosib ishtirok etib, 2-o'rinni qo'lga kiritgan edilar.

BOSHQARMADA...

Shu munosabat bilan Namangan viloyati FVBda tadbir bo'lib o'tdi.

Unda viloyat FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnarov g'olib yoshlarni tabrikлади va ularga tashakkurnomalar topshirdi.

Shuningdek, tizimda ko'p yillar xizmat qilgan, boshqarmada faoliyat olib borgan Botirjon Azimov va Sanjar Rahimovlarni



nafaqaga kuzatish tadbiri bo'lib o'tdi.

Oybek TOSHEMIROV,

Namangan viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari, polkovnik.

YASHIL MAKON-YASHIL TABIAT

O'zbekistonda "Yashil makon" umummilliy loyihasini yanada ommalashtirish, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, respublikamiz bo'ylab "Yashil makon" umummilliy loyihasining "Kuzgi daraxt ekish mavsumi" boshlandi.

Xususan, Andijon viloyati FVB harbiy xizmatchi va xizmatchilari tomonidan ham hududlarda daraxt ko'chatlarini ekish va ularni parvarishlash shuningdek, muhofazasini ta'minlash ishlari amalga oshirilmogda.

Bu kabi ishlar Andijon tumani "Bo'taqora" MFY yer maydonida 10 000 tupga yaqin mahalliy iqlimga mos turli mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Ushbu tadbir nafaqat ekotizimni yaxshilash, balki yosh avlodga tabiatning qad-rini yetkazish maqsadida ham muhim ahamiyatga ega. Ko'chatlar, kelajakda sog'lom yashil maydonlarni shakllantirib, atrof-muhitga sog'lom ko'rinish bag'ishlaydi.

Temurbek TURDIALIYEV,

Andijon viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

SHARAFLI YO‘L



Vatan himoyasi er yigitlar uchun hamisha sharaflı burch bo‘lib kelgan. Yuragida yigitlik burchini o‘tash ishtiyoqi bilan yongan o‘g‘lonlar borki, xarbiy xizmatda toblanib, Vatan oldidagi yigitlik burchini oqlashni istaydi. Jismonan baquvvat va sog‘lom bo‘lishga harakat qiladi, munosiblar qatorida bolishga intiladi, izlanadi.

Kindik qoni to‘kilgan zaminning haqiqiy qo‘riqchisi, qutqaruvchisi bo‘lish, egnidagi harbiy libosning yuki, kasbining sharaflı ma‘suliyatini bir lahza bo‘lsa ham unutmaslik, o‘z burchini sadoqat bilan ado etish harbiy xizmatchilariga xos fazilatdir. Bu kasbni tanlagan insonlar tinch-osuda hayotimizning har bir kuni, har bir soatida, har birimizning daxlsizligimizni ta‘minlash uchun jonini fido qilishdan tap tortmaydi. Bunday yurt fidoiylari kimgadir tanilish yoki nom

qozonish uchungina emas, yurt tinchligi, oilasi halovati uchun burchiga sodiq, sozida sobit turadi. Shuning uchun harbiy xizmatchilar hamisha Vatan himoyachilari sifatida ardoqlanadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligida mana shunday jasur, zabardast hamda jonkuyar o‘g‘lonlar safi tobora ortib bormoqda. Ularning samarali mehnatlari, sadoqat bilan ado etilayotgan burchi bugungi yoshlar uchun ham namuna bo‘lib kelmoqda.

Bugungi suhbatdoshimiz FVV akademiyasi 2-batalon kursanti Jon-Muhammad Ahadovda ham yuqoridagi jihatlar mujassam desak xato qilmaymiz. Suhbatdoshimiz juda samimiy, kitobga oshno, izlanuvchan, eng muhimi mas‘uliyatli va o‘z kasbini sevuvchi inson. Har bir insonning hayotda bajarayotgan ishi, vazifasi uning tarbiyasi, ishtiyoqi hamda o‘z ustida ko‘proq shug‘ullanishiga bog‘liqdir. Jon-Muhammad juda tirishqoq, teran fikrli va samimiy insondir.

U 2021–2023-yillarda Shahrisabzdagi “Temurbeklar” maktabida tahsil oldi. 2022-yilda “Men yangi O‘zbekistonning qanotiman” shiori ostidagi insholar tanlovida respublika bosqichida “Vatanparvarlik g‘oyasi uchun” nominatsiyasida g‘olib bo‘lgan. Huddi shu yili “Temurbeklar” maktabi o‘quvchilari

o‘rtasida o‘tkazilgan “Eng namunali o‘quvchi tanlovida”, “Eng iste‘dodli o‘quvchi nominatsiyasini qo‘lga kiritdi. 2023-yilda esa shu tanlovning respublika bosqichida I-o‘rinni egalladi. Sentabr oyidan boshlab FVV Akademiyasi kursantlari safidan joy oladi.

Suhbatdoshimiz Akademiyada hayotiy hamda kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlab bormoqda. Jon-Muhammad 2024 – 2025-o‘quv yilida FVV tomonidan tavsif etilgan “Amir Temur” stipendiyasiga munosib, deb topildi.

– Doimo ota-onamni – ortingda Vatanning bor, biz bor, senga ishonamiz, sen oilangga, ukalaringga, tengdoshlaringga o‘rnak bo‘lishing, yigitlik burchingni ado etishing kerak, deya takror-takror aytishlari menga katta kuch hamda shijoat beradi, – deydi u.

Jon-Muhammad qutqaruvchilik sohasini tanlashiga sabab bolgan voqeani shunday eslaydi: katta chorrahada avtohalokat tufayli kichkina qizcha mashhina tagida qolgandi, o‘lim bilan olishayotgan qizchani qutqaruvchi yuk mashinasi tagidan olib chiqayotgani, uni saqlab qolish uchun bor kuchi bilan kurashayotganini ko‘rib, men ham albatta, qutqaruvchi bo‘laman, insonlarning xavsizligi, tinchligi uchun sidqildan xizmat qilaman deb, ozimga soz bergandim.

Jon-Muhammad mutolaani sevuvchi, izlanuvchan, o‘z ustida ishlashni yoqtiradigan yigit. Shu kunga qadar qahramonimiz 300 dan ortiq kitob mutolaa qilgan.

Akademiyadagi ustozlari, ofitserlari ham Jon-Muhammadning kasbiga bo‘lgan sadoqati, fidoiyligi, shuningdek, izlanuvchanligini alohida e‘tirof etib o‘tishdi.

Jumladan, akademiya Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha kengash raisi, podpolkovnik Malohat Badalbayeva shunday deydi: Jon-Muhammadda o‘ziga bo‘lgan ishonchni, matonatni, o‘tkir zexnni, teran aqlni, ijodni hamda ravon nutqni, iste‘dodni nozik qirralarini ko‘rdim. Bir ishni ohiriga etkazmaguncha tinim-tinchimasligini kuzatdim. Imkoniyatlardan, yaratilayotgan sharoitlardan unumli hamda to‘g‘ri foydalana oladi. Eng muhimi, vaqtning qadriga yeta oladi.

Ha, mana shunday o‘g‘lonlarimiz bor ekan, ular bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Qahramonimizning kelgusi ishlarida zafarlar va oilaviy xotirjamlik tilab qolamiz.

Rushana ROZABOYEVA,
O‘zJOKU harbiy jurnalistika
yo‘nalishi talabasi.

MUZEYDA...

O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida “Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi” doirasida ishchi-xodimlar ishtirokida muloqot tashkil etildi. Unda FVV Matbuot xizmati boshlig‘i o‘rinbosari podpolkovnik Samandar Hikmatullayev ma‘ruza qilib, ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlar, xususan, zilzila hodisasi haqida ma‘lumotlar berdi. O‘z navbatida, ushbu ofat yuzaga kelganda to‘g‘ri harakatlanish qoidalarini eslatib o‘tdi va zarur tavsiyalar berdi.

Muloqot yakunida ishtirokchilar o‘z savollariga mutaxassisdan atroflicha javob oldilar.

Bahodir VALIYEV,
Muzey xodimi.



MARKAZDA MASHG‘ULOTLAR



Namangan viloyati FVB Hayot faoliyati xavsizligi o‘quv markazida 2024-o‘quv yili uchun rejalashtirilgan navbatdagi o‘quv mashg‘ulotlari maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi tasarrufidagi umumta‘lim maktablari tabiiy fanlar o‘qituvchilari toifasidagi tinglovchilar bilan 24 soatli dastur asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

Ushbu mashg‘ulotlar nazariy hamda amaliy tarzda o‘tilib, jarayonda tinglovchilarga favqulodda vaziyatlar xavfi tug‘ilganda hamda sodir bo‘lganda

qanday harakat qilish bo‘yicha tushuncha va ko‘nikmalar nazariy tarzda tushuntirildi.

Bundan tashqari, boshqarma muzeyiga sayohat tashkil etilib, undagi eksponatlar bilan yaqindan tanishtirildi. Shuningdek, yong‘in-qutqaruv qismidagi yong‘in-qutqaruv avtomashinasi va undagi qutqaruv asbob-anjomlarining vazifalari tushuntirildi.



Abdug‘ani XADJAYEV,
Namangan viloyati FVB HFXO‘M katta
o‘qituvchisi.

MAS‘ULIYAT HISSI

FVV Akademiyasi Favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish va xizmatni tashkil etish, Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi, Aholi va hududlar muhandisligi muhofazasi kafedralari mas‘ul vakillaridan iborat ishchi guruhlar tomonidan Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo‘lganda oqibatlarini bartaraf etish, yong‘in xavsizligini ta‘minlashni ilmiy yondashuv asosida o‘rganish bo‘yicha qator tadbirlar tashkillashtirilmog‘da.

Tadbirlar davomida Toshkent shahar Yangi hayot tumani FV bo‘limi boshlig‘i podpolkovnik S.Tursunov, Akademiya Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi kafedrasini harbiy xizmatchilari podpolkovnik I.Talibjanov, podpolkovnik T.Abdunabiyevlar, Sergeli tumanida Aholi va hududlar muhandisligi muhofazasi kafedrasini professor-o‘qituvchilaridan Q.Yakubov, Yakkasaroy tumanida Favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilish va xizmatni tashkil etish kafedrasini professor-o‘qituvchilaridan L.Kamolovlar ishtirokida maktablarning xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlarini jamlagan holda, mavsumiy tushdagi favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralariga bag‘ishlangan seminarlar, davra suhbatlari o‘tkazilmog‘da.



Mazkur tadbirlar Toshkent viloyatining Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlarida ham izchil davom ettirilib, mavsum davomida yong‘in, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha bilimlar targ‘ib qilinib, amaliy qismda zilzilani simulyatsiya qilishga ixtisoslashgan mobil avtomobilda tabiiy ofat vaqtida to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazildi. Akademiya tomonidan bu boradagi tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish yuzasidan media-reja tasdiqlangan bo‘lib, shunga asosan, amalg oshirilgan tadbirlar davriy matbuotda keng yoritib borilmoqda. Shuningdek, tumanlar aholisining favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorgarligini o‘rganish, yong‘inlar, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanish bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar, o‘quv mashqlari, davra suhbatlari o‘tkazilib, profilaktika ishlari mazmuni va sifatiga asosiy e‘tibor sqaratilmog‘da.

Baxshullo JAHONQULOV,
FVV Akademiyasi axborot xizmati
boshlig‘i.

Jizzax viloyati FVBda FVV va YUNISEF hamkorligida "Zilzila va boshqa tabiiy ofatlar xavfi tahdidi yuqori bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlarining favqulodda vaziyatlarga bardoshlilikini ta'minlashga qaratilgan mahalliy va milliy salohiyatlarni mustahkamlash" loyihasi doirasida seminar-trening tashkil etildi.

TRENING



Unda viloyat FVB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi, xotin-qizlar qo'mitasi va sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim hamda maktab ta'limi bo'limlaridan mas'ul xodimlar ishtirok etdi.

Trening davomida ishtirokchilar tabiiy ofatlariga tayyorgarlik, zilzila va favqulodda vaziyatlarga qarshi bardoshlilik, shuningdek, gender tengligi va zo'ravonlikka qarshi chora-tadbirlar bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ldilar.

Sardor SAFAROV,
Jizzax viloyati FVB bosh inspektori, leytenant.

HOLAT O'RGANILDI

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi boshlig'i polkovnik H.Bobonov rahbarligida dovon-dagi 6 ta navbatchilik maskanlari bino-inshootlari va 15 ta mexanizatsiyalashgan nazorat-kuzatuv guruhlarining yashash sharoitlari, shuningdek, vagon-konteynerlarning elektr ta'minoti, isitish tizimi va holati o'rganildi.

Dovon hududidagi 15 ta umumiy ovqatlanish maskanlari, "Qamchiqavtoyol IYFK" davlat muassasasining 257-, 524- va 550-yo'l bo'limlarida 2 000 nafardan ortiq aholini qabul punktlari shay holatga keltirilib, 1300 nafar yo'lovchilarni issiq ovqat bilan ta'minlash choralari ko'rilmoqda. "Angren-Pop" elektrlashtirilgan temir yo'lining "Ohangaron", "Angren", "Orzu", "Temiryo'l-obod", "Pop-2" stansiyalarida noqulay ob-havo sababli, avtomobil yo'lida transport vositalarining cheklanishi bilan bog'liq holatlarda fuqarolarni o'z manzillariga yetkazish bo'yicha shtab ishini tashkil etish, evakuatsiya poyezdini yo'lga qo'yish va yo'lovchilarga



shart-sharoitlarni yaratish ishlari olib borilmoqda.

"Chinor", "Ertosh", "Buloq", "Qamchiq", "Rezak", "Sherobod" tez tibbiy yordam shoxobchalarida yetarli dori-darmon vositalari zaxirasini yaratish ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda.

Alisher QUDRATOV,
"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi bo'lim boshlig'i, kichik serjant.

YANGI TIZIM

Urganch shahar hokimligida kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, shahar hududida, mahallalarda, ijtimoiy soha va boshqa obyektlarda mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish samaradorligini oshirish maqsadida, yagona Axborot-tahlil monitoring markazi tashkil qilinib, unga mutasaddi idora va tashkilotlarining mas'ul xodimlari birlashtirildi.

Shahar fuqarolari tomonidan markazga o'rnatilgan telefon raqamlariga yo'llangan murojaatlar Yagona axborot-tahlil monitoring markazida "Osuda vatan axborot tahlil tizimi" orqali ro'yxatga olinib, shahar FM boshlig'i va uning o'rinbosari tomonidan nazoratga olinmoqda.

Keyinchalik fuqarolar tomonidan tushadigan bunday murojaatlar mobil ilova orqali

ham amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu yaratilgan yangi tizim orqali kuz-qish mavsumida aniqlangan kamchilik va muammolarni tez va samarali bartaraf etish imkonini beradi.

Erkinboy ERNAZAROV,
Urganch shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, leytenant.

TERMIZ XALQARO AEROPORTIDA

Surxondaryo viloyati FVB OYXTEB xodimlari tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, mavsumni betalafot o'tkazish maqsadida viloyat hududida joylashgan, toifalangan obyektlar sirasiga kiruvchi "Termiz xalqaro aeroporti" MCHJda keng qamrovli profilaktik tadbirlar olib borildi.

Tadbirlar davomida aeroportning yong'in xavfsizligi holati batafsil tartibda tekshiruvdan o'tkazilib, kamchiliklar aniqlangan joyida bartaraf etildi. Shu bilan birga ishchi-xizmatchilarga is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi, yong'inlar va boshqa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarining oldini olish bo'yicha tushunchalar berilib, xavfsizlik qoidalarini o'zida aks etgan eslatmalar tarqatildi.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik davrida obyekt hududida qator ishlar amalga oshirildi.

Barchasi nazorat qilinib, olovli ishlarni olib borish uchun ruxsatnomalar berildi. 1 marotaba birlamchi yo'riqnoma o'tkazildi. Faoliyat yuritib kelayotgan 163 nafar xodim bilan 7 marotaba qayta yo'riqnomalar o'tkazildi. Aeroport ishchi-xizmatchilari bilan "Is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi va yong'inlar sodir bo'lishi" va "Yong'in xavfsizligi qoidalari" mavzusida 8 marotaba uchrashuvlar tashkil etildi. Tanishuvlarni tashkillashtirish xizmati, yer usti inshootlari va muhandislik kommunikatsiyalaridan foydalanish bo'limi, yer usti xizmat ko'rsatish hamda yonilg'i-moylash materiallari xizmatlariga tegishli bino-inshootlarining suv ta'minoti tizimlari, yong'inga qarshi qalqon, birlamchi yong'in o'chirish vositalari, yong'in avtomatikasi tizimlari tekshirildi.

J.QOSIMOV,
Surxondaryo viloyati FVB OYXTE bo'limi inspektori (xalqaro aeroport bo'yicha), kapitan.

QIZG'IN BELLASHUV

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB 2-sektordagi boshqarma tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida "Yurtning kuchi — birlikda, qadri esa tinchlikdadir" shiori ostida "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" sport musobaqalari va ko'rik-tanlovlarning respublika bosqichi o'tkazildi. Musobaqada shahar va tuman bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan 16 ta mahalla jamoasi o'zaro bellashdilar.

Ishtirokchilar voleybol, arqon tortish, shaxmat, yong'in o'chirish estafetasi, dala sharoitida chodir tikishni amalga ko'rsatish va jabrlangan-ga birinchi yordam ko'rsatish yuzasidan savollarga javob berib bahslashdilar.

Bellashuvning yakuniy natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Taxtako'pir tumani, 2-o'rinni Shumanay



tumani hamda 3-o'rinni To'rtko'l tumani jamoalari qo'lga kiritdilar.

G'olib va sovrindorlar boshqarmaning diplom, medal, kubok va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Aybek ABDIRAXMANOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB matbuot xizmati boshlig'i, mayor.

G'OLIBLAR TAQDIRLANDI

Navoiy viloyati FVB, O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi viloyat Kengashi hamkorligida FVV tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida "Yurtning kuchi — birlikda, qadri esa tinchlikdadir" shiori ostida "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" uchun sport musobaqalari va ko'rik-tanlovlarning viloyat bosqichi o'tkazildi.

Viloyatning tuman va shahar bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan 10 ta jamoadan 80 nafar musobaqa va tanlov ishtirokchilari musobaqa shartlari asosida bellashishga kirishdilar.

Yakuniy natijalariga ko'ra, 1-o'rinni Navoiy shahar "Ishonch" MFY "Qutqaruvchilar" jamoasi, 2-o'rinni Xatirchi tumani "Zarbdor" MFY "Shunqorlar" jamoasi va 3-o'rinni Navbahor tumani "Xashman" MFY "Jasorat" jamoasi qo'lga kiritdi.

Musobaqa davomida "Eng hamjihat jamoa", "Eng chaqqon qiz bola", "Eng bilimdon jamoa" kabi nominatsiyalar bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi. G'olib va sovrindor hamkor tashkilotlarning diplom, medal, kubog va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Aziz SHERALIYEV,
Navoiy viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.

TEMIR YO'L STANSIYASIDA MASHQ

FVDT xizmatlari bilan samarali hamkorlikda harakat qilish, talafotlar oqibatlarini bartaraf etishda eng asosiy omil hisoblanadi. Shu maqsadda Yangiyer temir yo'l stansiyasi hududida navbatdagi maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Dastlab barcha guruh rahbarlaridan tayyorgarlik holati bo'yicha ma'lumotlar olindi. Razvedka guruhi tomonidan hudud o'rganilib, boshqaruv shtabiga yetkazilgan shartli talafot natijalari va jabrlanganlar to'g'risida xabarlar berildi. Qidiruv-qutqaruv guruhi tomonidan jabrlanganlar xavfsiz hududga olib chiqilib, obyekt hamda Yangiyer shahar tibbiyot xizmatlari tomonidan birinchi tibbiy yordam ko'rsatildi. Ayni jarayon-

lar davomida vagon-sistema temir yo'l izidan chiqib, yorilishi oqibatida kuchli ta'sir etuvchi xlor moddasi havoga tarqalishi bilan bog'liq favqulodda vaziyat sodir bo'lganligi aniqlanib, obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmasi hamda boshqarma yong'in-qutqaruv otryadi shaxsiy tarkibi hamkorligida bartaraf etildi.

Mashq yakunida bajarilgan harakatlar tahlil qilinib, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish borasida qo'shimcha yo'riqnomalar berildi.

Davronbek SULAYMONOV,
Sirdaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.
Sardor SHERMATOV,
boshqarma bo'lim boshlig'i, kapitan.

Biz uchun qulay va arzon bo'lgan gazdan foydalanishda e'tibor va xushyorlik talab etiladi. Sodir bo'layotgan yong'in, gaz chaqnashi va is gazidan zaharlanish holatlari beparvolik, loqaydlik va e'tiborsizliklar sababli kelib chiqadi.

LOQAYDLIK – ENG KATTA DUSHMAN

Afsuski, o'zboshimchalik bilan gaz uskunalari boshqa joyga ko'chirish, rezina shlanglar orqali foydalanish, gaz anjomlarini qarovsiz qoldirish, maishiy gaz ballonlarini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazmaslik kabi holatlar hamon uchrab turibdi. Ayniqsa, gaz ballonlaridagi ventillarni ochib, ballon ichidagi chiqindi xisoblangan suyuqlikni to'kib, boshqa maqsadlarda ishlatish yong'in, gaz chaqnashi hamda kuyish tan jarohatlarini olish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar va salbiy holatlarga olib kelishi mumkin.

M.XUDOYQULOV,

Farg'ona viloyati hokimiyati "Qabullar uyi"ning YOXTTEB inspektori, kapitan.

PROFILAKTIKA

Namangan viloyati FVB, Davlatobod tumani FV bo'limi hamda daxldor tashkilotlar vakillari hamkorligida tumanning "Umid" mahallasidagi ko'p qavatli turar-joylarni yong'inga qarshi holati tekshirildi. Uy egalariga xonadonlarda gaz, elektr isitish moslamalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish haqida tushuntirilib, fuqarolarga eslatma plakatlar tarqatildi.



Shuningdek, Namangan muhandislik-texnologiya instituti talaba-yoshlar bilan mavsumda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish va FVV volontyori mazmun-mohiyati tushuntirilib, yoshlarni sohaga oid qiziqtirgan savollariga javob berildi.

Islomjon MELIBOYEV,

Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakhi mutaxassisi.

Akmal MUSAYEV,

Davlatobod tumani FV bo'limi DYON inspektori, katta serjant.

BARCHAMIZ MAS'ULMIZ!

Arzimagan e'tiborsizlik yoki loqaydlik, bolalarga beparvo bo'lish, ularni nazoratsiz qoldirish yoki mutaxassislarning tavsiyalariga amal qilmaslik talafotli oqibatlariga olib kelishi, eng achinarlisi, o'zimiz, yaqinlarimiz hayotiga xavf solishini aslo unutmasligimiz kerak.

Hozirda soha xodimlari tomonidan joylarda yong'in hodisalarining oldini olishga oid tadbirlar kuchaytirilgan tartibda olib borilmoqda. Albatta, barchamiz ushbu amaliy sa'y-harakatlarda yanada faol bo'lishimiz, bu boradagi tadbirlarga munosib hissa qo'shishimiz lozim.

Y.OXUNOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi binosida YXTTE 1-bo'linmasi kichik inspektori, kichik serjant.

TAYYORGARLIK JARAYONI

Kuz-qish mavsumida havo haroratining pasayishi elektr, gaz va isitish moslamalariga nisbatan ehtiyojni oshiradi. Bu o'z navbatida, barchamizdan yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishni talab etadi. Shu bois, joylarda mavsumga tayyorgarlik ko'rish, energetika tarmoqlarining barqaror ishlashini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan yig'ilishlar o'tkazilmoqda.

Mutasaddi idora va xizmatlarning mas'uliyatini yanada oshirish, sohalar kesimidagi kamchiliklarni vaqtida bartaraf qilish, aholining murojaatlari va ulardagi muammolarni joyida hal etish, yong'in-qutqaruv xizmatlari bilan bevosita hamkorlik ishlarini tashkillashtirish masalalariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

I.SAYDORIPXODJAYEV,

O'z MTRK Toshkent radioeshitirish uyi bo'linma boshlig'i, mayor.

BOTULIZM

Botulizm – juda tez fursatda yuzaga keluvchi, kuchli toksin ta'sirida zaharlanish alomatlari bilan o'tadigan va o'ta og'ir oqibatlariga olib keluvchi kasallikdir. Kasallik asosan, kuz-qish mavsumiga to'g'ri keladi. Buning asosiy sababi fuqarolar tomonidan uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsulotlarini iste'mol qilinishi bilan izohlanadi. Chunki uy sharoitida sabzavot tuzlamalarini hamda meva sharbatlarini tayyorlashda texnologik jarayonlarga amal qilinmasligi, xomashyo mahsulotlarini yetarlicha yuvilmasligi, ularni saqlash sharoitiga yetarlicha ahamiyat berilmasligidir. Kasallikka chalinganda darhol shifokorga murojaat qiling. Zaharlanganlikda gumon qilingan oziq-ovqat mahsulotlar tarkibini tekshiruvdan o'tkazish uchun olib qo'ying.

A.TOJIBOYEV,

Dang'ara tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari P va NB boshlig'i, kapitan.

MUSOBAQA

FVV Akademiyasida vazirlik tuzilmalaridan tarkib topgan 19 ta jamoa ishtirokida sportning shaxmat turi bo'yicha "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" musobaqasi bo'lib o'tdi. Shu bilan birga akademiya qoshida tashkil etilgan "Shaxmatchi yoshlar klubi"ning ochilish marosi ham tashkil etildi.



Qizg'in davom etgan musobaqa natijalariga ko'ra, jamoaviy hisobda 1-o'rinni Namangan viloyati FVB jamoasi, 2-o'rinni Andijon viloyati FVB vakillari hamda 3-o'rinni FVV Akademiyasi jamoasi qo'lga kiritdi.

Musobaqa yakunida tashkilotchilar tomonidan sovrindorlarga kubok, diplom, medal va esdalik sovg'alari tantanali topshirildi.

Farhodjon XOJAYEV,

FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi, mayor.

KITOB BILIM MANBAI

Kitob – zamonlar to'liqida suzuvchi, o'zidagi ma'nolar xazinasini ajdodlardan avlodlarga avaylab yetkazuvchi tafakkur kemasidir.



Uning har bir sahifasi hikmatlarga boy va dillarga ro'shnolik kiritib, ezgu tuyg'ularni uyg'otmoqqa qodir. Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda kitob mutolaasi va targ'iboti, kitobxonlik madaniyatini oshirishga oid qator qarorlar va farmonlar qabul qilinib, yurtimizning barcha hududlarida, xususan Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasida har doimgi davrdan bir necha barobar ko'p miqdorda samarali ishlar amalga oshmoqda, tashviqot-targ'ibotlar olib borilmoqda.

Furqatjon FOZILOV,

"FNQIZ" MChJ YOXTTEB 25-YQQ boshlig'i, mayor.

TADBIRLAR DOIRASIDA



FVV Akademiyasi tomonidan Toshkent shahrida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish, yong'in xavfsizligini ta'minlashni ilmiy yondashuv asosida o'rganish, ilmiy diagnostik qo'yish va bartaraf etish yuzasidan manzilli chora-tadbirlar dasturiga asosan FVV Akademiyasi "Aholi va hududlar muhandislik muhofazasi" kafedrasida professor-o'qituvchilari Sergeli tumanida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashni ilmiy yondashuv asosida o'rganish, ilmiy diagnostik qo'yish va bartaraf etish yuzasidan bir qator ishlarni amalga oshirib bormoqda.

Tumandagi aholi xonadonlari va aholi ko'p yig'iladigan maskanalarda hamda "Havas-foot" HKga qarashli omborxonalarda ishchi-xizmatchilar va qurilish ishlarini olib borayotgan mutaxassislarga favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yuzasidan tushintirish ishlari olib borildi. Bundan tashqari, kafedra professor-o'qituvchilari va kafedraga birlashtirilgan iqtidorli kursantlar tumanda o'tkaziladigan qo'mondonlik-shtab o'quv mashg'ulotida ishtirok etishib, favqulodda vaziyatlar paytida aholini evakuatsiya qilish yuzasidan nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlashdi.

A.LITYAGA,

FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i t.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik.

Z.I.LASHOV,

kafedra katta o'qituvchisi t.f.f.d. (PhD), mayor.

18-noyabr – O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun

BAYROG'IMIZ – FAXRIMIZ!



Ona zaminimizda ellar, millatlar ko'p. Har kim o'z ona-Vatani bilan faxrlanishi, g'ururlanishi lozim. Biz davlatimiz ramzlari – o'z tilimiz, bayrog'imiz, gerbimiz va madhiyamizga egamiz. Vatanimiz timsollari bizning g'ururimiz.

"O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi oliy kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan. Bayrog'imiz, g'urur va faxrimiz timsolidir. Vatanimizning beqiyos ramzidir. Quyosh ko'kda falakning bayrog'i bo'lib porlab turibdi, ko'ngilda muhabbat bayrog'i hilpiraydi, ongimizni esa tafakkur bayrog'i nurlantiradi. Ozod va obod Vatanimiz — O'zbekistonning bayrog'i ham bizni ulug' maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash'aladir. Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli hisoblanadi.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, davlat ramzlari hamisha muqaddas va ulug' sanalgan. Chunki u xalqning o'tmishini, buguni va kelajagini o'zida mujassam etgan Vatanning yorqin timsolidir. Bayrog' atamasi eski turkiy atama bo'lib, u bundan ming yillar avval ham aynan shu ma'noda qo'llangan. Tilshunoslarning aytishicha, bu nom qadimgi turkchada baziraq, badiroq, batiroq tarzida ham qo'llangan. Ya'ni, bayrog' biror el-ulus, qavmning erkinlik belgisi bo'lib, u baland joylarga, hukmdorlar chodiriga o'rnatib, qo'yilgan.

Uni tug', yalov, sanchoq (sanjoq) nomlari bilan ham ataganlar.

Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston hududida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analari o'zida mujassamlashtiradi. Yer yuzidagi har bir davlatning o'z ramzlari, bayrog'i bor. Har bir bayrog' ayri-cha rang va timsollarga ega. Ular bilan yonma-yon balqib turgan bayrog'imiz hech kimdan kam emasligimiz va kam bo'lmasligimizni ko'rsatib turadi. Ajdodlarimiz ham yurt bayrog'ini muqaddas bilib, uni ko'z qorachig'idek asraganlar.

Davlatimiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayrog' ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat, g'alaba timsoli bo'lgan.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur g'oliblik bayrog'ini yuksak ko'targan. Bu bayrog' ostida buyuk el birlashgan, u barpo etgan ulug' saltanatni dunyo tan olgan. Bu davr vatan tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Bayrog' esa tom ma'noda mamlakat ramzi, ulug'vorlik timsoliga aylandi. Jangchilarga jangovar ruh bag'ishlash, ularning kayfiyatini ko'tarish, irodasini chiniqtirish maqsadida jang maydonlari uzra baland hilpirab turgan. Bayrog' eng ishonchli bahodirlar tomonidan qo'riqlangan. Bexos daydi o'q kelib tug' ko'targan jangchiga tegsa-da, u tuproqqa qorishmagan. Jon bergan sarboz o'rnini boshqasi egallagan.

Sohibqiron bobomiz zamonida bayroqni past tutish yoki sarbozning qo'lidan tushib ketishi xosiyatsiz sanalgan.

Bunga Sohibqiron alohida e'tibor bergan. Bayroqning pasaytirilishi mag'lubiyat va ortga chekinish ishorasi bo'lgan. Shuningdek, "Temur tuzuklari"da ta'kidlanishicha, dushman ustidan shijoat va mardlik ko'rsatib, g'alaba qozongan amirlar va sipohiyarga davlat timsollari – tug' va nog'ora in'om qilingan. Bu sohibqiron davlatida saltanat ramzlari nechog'lik baland maqom tutgani va ular qanday katta ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Vatanimiz bayrog'i tarixning xalqimiz boshiga musibat tushgan davrlari – o'tgan asr boshlarini yodimizga soladi. O'sha kunlar xalqimiz qalbida ketmas dog' bo'lib qolgan. Vatan bayrog'ini tutgan qo'llar qayrilgan, ozodlikni kuylagan ovozlari bo'g'ilgan. Millat fidoyilari "xalq dushmani", "quloq", "sotqin" degan qora nomlar bilan ta'qibga olingan. Dunyoga nene allomalarni bergan qadim xalq savodsizga chiqarilgan. Xalqimizga nisbatan aytilgan bu haqorat asl vatandoshlarimiz qalbida ma'rifat olovini yoqqan va ular belini mahkam bog'lab, millatni erk va ozodlik bayrog'i ostida birlashishga chaqirgan. Bu mag'rur elning asrlar davomida orzu qilgan g'ururi, sha'ni, qadr-qimmati, irodasini ifodalovchi ozodlik bayrog'i edi! Unda ajdodlar orzu-armoni aks etadi. Unda xalqimizning buguni, o'lmas xotirasi, iymon-e'tiqodi, kelajakka bo'lgan komil ishonchi jilolanadi.

Bayrog'imiz 1992-yilning 2-martidan O'zbekiston to'laqonli suveren respublika sifatida tan olinganining ramzi

sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh qarorgohi oldida ham hilpiray boshladi. U xalqaro maydonda mamlakatimizning kuch-qudrati, mustaqilligimizning jahonaro ifodasi, xalqimiz g'ururi va iftixori timsoli bo'lib xizmat qilmoqda. Bugina emas, dunyo mamlakatlaridagi elchixonalarimiz binolari, qator xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida ham bayrog'imiz O'zbekiston ramzi bo'lib turibdi. O'zbekiston delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga safarlari chog'ida, davlatimizning chet ellardagi elchixonalari va xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalarida, xalqaro konferensiyalarda, jahon ko'rgazmalarida, sport musobaqalarida, yurtimizdagi barcha rasmiy idoralarda ozod va obod Vatanimiz timsoli sifatida yuksaklarda parvoz qilmoqda. Ayniqsa, har bir soha kabi sportchilarimiz Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, qit'a hamda jahon chempionatlarida mamlakat sharafini munosib himoya qilib, hamisha barqaror bayrog'imizni baland, ko'tarmoqda. Bu albatta barchamizni qalbmizga faxr va g'urur tuyg'ularini uyg'otadi.

Vatan himoyasidek muqaddas burchni mardona o'tash uchun bayrog'imizni o'pib, qasamyod qilayotgan harbiylarimizning qalbidagi olovni, ko'zlaridagi jo'mardlikni ko'rib, faxrlanamiz. Ana shunday lahzalarda hech mubolag'asiz Vatanimiz bayrog'ini ko'zimizga to'tiyo qilgimiz keladi. Bu faxrlanish aslida yurtga bo'lgan cheksiz mehr va sadoqatning yorqin ko'rinishidir. Har bir inson ongu shuuriga Vatanimiz ramzlariga nisbatan chuqur hurmat tuyg'ularini singdirish, umummilliy va ehtirom timsollari bo'lgan bayrog', gerb va madhiyamizni ulug'lash va ardoqlash barchamizning muqaddas burchimizdir. Toki bayrog' bor ekan, millat bor, davlat bor, Vatan bor. O'zbekiston farzandlari qayerda bo'lmasin, qanday natijalarga erishmasin Vatan bayrog'ini ardoqlaydi.

So'nggi yillarda fuqarolarning o'z vatanparvarlik tuyg'ularini ifoda etish hamda Vatanimiz erishayotgan yutuqlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat ramzlaridan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'idan keng foydalanishga bo'lgan talab oshib borayotganligi yaqqol ko'rinmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2023-yil 7-iyulda "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun imzolandi. Mazkur qonun bilan endilikda bayrog' va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylarida, binolar va boshqa obyektlarda, yashash yoki ish joylarida, shuningdek, ularga tutash bo'lgan hududlarda, transport vositalarining salonida, sport musobaqalarida, ommaviy, tantanali va madaniy tadbirlarda, oilaviy bayramlarda, xotira sanalarini nishonlashda, jamiyat va davlat arboblarning, harbiy xizmatchilarning dafn marosimlarida, xalqaro sport musobaqalari hamda O'zbekiston chempionatlari uchun sport kiyim-boshini tayyorlashda foydalanilishga ruxsat berildi.

Shuningdek, hujjat bilan O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'iga nisbatan hurmatsiz munosabatda bo'lish hollari ham belgilab qo'yildi. Endilikda, bayroqdan va uning tasviri tushirilgan belgilardan yirtilgan, ifloslangan, teshilgan, rangi o'chgan holda va boshqa noma'qul tarzda, biror-bir narsa uchun ustki yoping'ich, kiyim, dastro'mol yoki ko'rpa-to'shak sifatida, shuningdek, buyumlarni saqlash va tashish uchun foydalanish, bayroqni stollarga, o'rindiqlarga, stullarga to'shish yoki uning tasvirini tushirish va undan qoplama sifatida foydalanish mumkin emas.

Shu bilan birga, uni oyoq ostiga to'shish yoki uning tasvirini tushirish taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'idan va uning tasviri tushirilgan belgilardan odob-axloq qoidalari va jamiyatda yurish-turish qoidalariga zid ravishda yoxud bayroqni tahqirlash hisoblanadigan boshqacha tarzda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Vatanimiz ramzlariga nisbatan chuqur hurmatda bo'lish, ularni ulug'lash va ardoqlash barchamizning muqaddas burchimiz bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda davlatimiz ramzlari kuchli tarbiya vositasi sifatida yoshlarimizning milliy g'ururini yuksaltirishga, ularni Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning bayrog'imiz Vatanimizning, xalqimizning jahon sahnasida, dunyo ahli oldidagi o'ziga xos ramzi, timsolidir. Uni asrab, muqaddasligini kelajak avlodga yetkazish bizning sharafli burchimiz hisoblanadi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI 2024-YIL 8-OKTABRDAN 8-NOYABRGA QADAR QUYIDAGI PEDAGOG LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

“Aholi va hududlarni muhandislik muhofazasi kafedresi” kafedresi bo'yicha:

1 nafar - kafedra dotsenti (Binolar, inshootlar va ularning favqulodda vaziyatlarga bardoshliligi, Yong'inni tergovga qadar tekshiruv va ekspertizasi fanlari bo'yicha) lavozimi.

“Tillar” kafedresi” bo'yicha:

1 nafar – kafedra professori (Ingliz tili fani bo'yicha) lavozimi.

“Umumkasbiy va umumilmiy fanlar” kafedresi bo'yicha:

1 nafar - kafedra professori (Issiqlik texnikasi, Amaliy mexanika fanlari bo'yicha) lavozimi.

Izoh:

tanlovda qatnashishni xohlovchilar Akademiya boshlig'i nomiga ariza va unga ilova qilib quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa;

oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlar nusxasi;



ilmiy daraja (shu jumladan, fan doktori (DSc), falsafa doktori (PhD), fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) egaligi to'g'risida guvohnoma;

ilmiy unvonga egaligi to'g'risida guvohnoma;

ilmiy ishlar (monografiya, maqola, tezis va ma'ruza) va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda, ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalari va ilmiy ishlar nusxasi va ro'yxati;

malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalar nusxasi.

Manzil: Toshkent shahar, Yangihayot tumani, Do'stlik ko'chasi 5-uy. Telefonlar – 71-258-56-27, 97-764-34-87

Lavozimlar bo'yicha talablar:

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda, dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

U HAYOTINING HAR BIR DAQIQASINI ESLAYDI: AMERIKALIK AYOL OLIMLARGA KAM UCHRAYDIGAN KASALLIKNI ANIQLASHGA YORDAM BERDI



Har yili olimlar tomonidan yangidan yangi kasalliklar kashf etiladi va albatta, ularga davo topish uchun bu kasalliklar o'rganiladi. Bugungi sahifamizda tibbiyot tarixida birinchi marta “favqulodda avtobiografik xotira” yoki “HSAM” tashxisi qo'yilgan amerikalik ayol haqida so'z boradi.

Oddiy bolalik

Jill Prays 1965 yilning 30 dekabrda Nyu-Yorkda tug'ilgan. U sakkiz yarim yoshga to'lganida, otasini Los-Anjelesdagi “Columbia Pictures Television” kompaniyasi ishga taklif qiladi va oila Los-Anjelesga ko'chib o'tadi. Uning so'zlariga ko'ra, aynan shu kuni, uning “miyasi singan”.

Xotiralar yuki

Jill Prays HSAM deb nomlanuvchi kasallik tashxisi qo'yilgan birinchi odam bo'ldi. Bugungi kunda sayyoramizda yana 60 kishi bunday kam uchraydigan kasallikdan aziyat chekadi. Bu odamlar o'tmish hayotlarining aksariyat kunlarini biz yaqin kunlarni eslaganimizdek aniqlay olishadi.

Prays qaysi sana bo'lmasin, haftaning qaysi kuni bo'lgani, o'sha kun u qayerda bo'lgani, nima bilan shug'ullangani va yonida kim bo'lganini ayta oladi. U hatto 20 yil oldingi xotiralarini ikki kun oldingidek osonlik bilan batafsil eslaydi.

– Mening xotiralarim hayotimning har bir kunidagi videofilm lavhalariga o'xshaydi, – deb yozadi u. – Bu lavhalar har doim xayolimda yoqilib, meni osonlik bilan o'sha lahzalarga olib boradi.

Praysning aytishicha, doimo shay holatda turgan haddan tashqari ko'p xotiralar odamni aqlan ozdirishi mumkin.

Kamdan kam uchraydigan kasallik

Bu og'ish Kaliforniya universiteti professori, o'nlab yillar davomida inson miyasini o'rganib kelgan, 500 dan ortiq ilmiy tadqiqotlarni nashr etgan neyrobiolog Jeyms Makgauni qiziqirdi. Prays u bilan uchrashganida 34 yoshda edi.

Biroq, Jill bilan uchrashgandan so'ng, hech qachon bunday alomatlarini kuzatmagan fan mash'ali sarosimaga tushdi. Makgau tez orada Prays

xotirasi chuqurligi va ko'lamini aniqlash maqsadida neyropsixolog va nevrologlardan iborat guruh tuzdi. Ular Praysning xotira qobiliyati xaritasini tuzib, natijalarni tahlil qilishga kirishdi.

Keyingi besh yil davomida Prays xotira, IQ va o'rganuvchanlik darajasining standartlashtirilgan testlari, shuningdek, yana bir qator maxsus ishlab chiqilgan testlarni topshirdi.

Miya nomli jumboq

O'n ikki yil o'tgach, shifokorlar Jill miyasi qanday ishlashi yechimiga biroz yaqinlashgandek bo'ldi. O'sha vaqtga kelib, shunga o'xshash anomalliklarga ega yana bir nechta odam topildi.

Ammo bu natijalarning hech biri HSAM bilan kasallangan odamlar qanday qilib shunchalik ko'p narsani eslab qolishga imkon beradigan narsalarni to'liq tushuntirib bera olmadi.



Bugungi kunda Jill Prays va unga o'xshash bemorlar ushbu kasallik bilan yashashda davom etmoqdalar. Mablag' yetishmasligi sababli uning xotirasi bo'yicha tadqiqotlar to'xtatildi. Olimlar endi ilm-fanni moliyalashtirish ommabop emasligidan afsusda.

Amerikalik ayol haqiqatdan chiqib ketmaslikka muvaffaq bo'lganligi haqida kitob yoza boshladi.

Masrur SANAYEV tayyorladi.



Vaziyat
gazetasi

Muassis:
O'zbekiston
Respublikasi
Favqulodda
vaziyatlar
vazirligi

Bosh muharrir
Azamat SUYUNOV

*Gazeta tahririyat
kompyuterxonasida
sahifalandi.*

Gazeta har haftaning
payshanba kuni chiqadi.
Topshirish vaqti – 15.00
Topshirildi – 15.00

Navbatchi:
A.QOBILOV

Tahririyatga yuborilgan
materiallar qaytarilmaydi
va izoh berilmaydi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2007 yil
3 yanvarda 0096-son raqam
bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2091-5292

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani,
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.
Tel.: (71) 212-69-56
Telegram: (90) 016-87-67

Indeks:
*yakka obunachilar va
tashkilotlar uchun - 382*

Gazeta “Sharq NMAK”
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent shahri,
Mirobod tumani
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy
Buyurtma № G-1152
Bichimi: A3, hajmi: 2,0 b.t.
Adadi - 9750 nusxa